

MINIMALIZM ARXITEKTURASI USLUBI VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Sobirjonova Dilyora Sarvarovna

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

Arxitektura fakulteti Interier Dizayin yo'nalish talabasi

E-mail: sobirjonovadilyora2008@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.02.2026

Revised: 02.02.2026

Accepted: 03.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Minimalizim,
arxitektura, soddalik,
funksionallik,
memorchilik uslubi,
estetik muhit, zamonaviy
dizayn.*

Ushbu maqolada minimalizm uslubining mohiyati, uning shakllanish tarixi hamda zamonaviy hayotdagi o'rni tahlil qilingan. Minimalizmning dizayn, san'at, turmush tarzi va shaxsiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, minimalizmning iqtisodiy va ekologik ahamiyati haqida xulosalar berilgan.

Kirish

Bugungi davrda inson hayoti tobora murakkablashib bormoqda. Axborot oqimining ko'payishi, texnologiyalar rivojlanishi va iste'molchilik madaniyatining kuchayishi natijasida jamiyatda soddalik va tartibga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Anashunday sharoitda minimalizim nafaqat hayot tarzi, balki me'morchilik va dizayn sohasida ham muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Minimalizm uslubi ortiqcha bezaklardan voz kechish, funksionallikni birinchi o'ringa qo'yish hamda makonning ixcham va qulay bo'lishiga intilish kabi tamoyillarga asoslanadi. Minimalizim avvalo arxitektura namoyon

bo'lgan. Bu uslub asosida barpo etilgan binolar sodda ko'rinishi, aniq geometrik shakllari va tabiiy materiallardan foydalanilishi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda minimalizm arxitekturasini namunalarining keng tarqalishi uning jamiyat ehtiyojlariga mos kelishini ko'rsatadi. Shuning uchun minimalizm uslubining mazmun-mohiyatini, arxitekturadagi o'rnini hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qisim:

Minimalizm – bu eng avvalo soddalik, aniqlik va funksionallikka asoslangan estetik hamda ma'naviy yo'nalishdir. Ushbu uslub XX asrning ikkinchi yarmida Modern uslubining davomchisi sifatida, G'arb mamlakatlarida paydo bo'lib, san'at, arxitektura va dizayn sohalarida yangi qarashlarni shakllantirdi. Dizayn sohasida minimalizm ortiqcha bezaklardan voz kechish, shakllarning oddiyligi va ranglarning sokinligiga e'tibor qaratadi. Arxitekturadagi minimalizm ham aynan shu tamoyillar asosida makonlarni tartibli, qulay va ruhiy osoyishta qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalishning arxitekturadagi asosiy g'oyasi – “kamroq narsa – ko'proq mano” tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni bino yoki inshootda faqat zarur bo'lgan elementlarigina qoldiriladi, ortiqcha bezak va detallar butunlay cheklab qo'yiladi. Minimalistik arxitektura boshqa uslublardan soddalik va sokinligi bilan ajralib turadi. Bu uslubning eng muhim xususiyatlaridan biri – funksionallikdir. Har bir qurilish elementi aniq vazifani bajarishi lozim. Shakl va mazmun uyg'unligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Bunday binolarda ochiq makon, keng derazalar, tabiiy yorug'lik va neytral ranglar ustunlik qiladi. Beton, shisha, metal va yog'och kabi tabiiy materiallardan keng foydalaniladi. Minimalizm uslubida to'g'ri va aniq chiziqlar, geometrik shakllar qo'llaniladi. Bu uslubda ranglar ham cheklangan bir yoki ikkita rangdan foydalanish mumkin, u ham sokin insonni o'ziga jalb qilmaydigan ranglardan bo'lishi lozim. Misol uchun 1, 2, 3-rasmlarda minimalizm arxitekturasini ko'rishimiz mumkin:



1-rasm



2-rasm



3-rasm

Bugungi kunda minimalizm uslubi faqat tashqi me'moriy ko'rinishda, balki ichki interyer dizayda ham keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy turar-joylar, ofislar, o'quv maskanlar va jamoat binolarida ushbu uslubning ta'siri yaqqol seziladi. Uy interyerlarida ham ko'p qollanilmoqda, uyning ichidagi jihozlar, eshiklar minimalizm uslubida berkitilib uyning kengligi soddalilik darajasini yanada oshirmoqda. Misol uchun 1, 2-rasmlarda korishimiz mumkin.



1-rasm



2-rasm



3-rasm

Minimalizm uslubi baroko, rokoko uslublariga qarama-qarshi tarzda zamonamizda urfga aylandi. Minimalizm arxitekturasi shunchaki dizayn yo'nalishi emas, balki insonning hayotiga bo'lgan ongli munosabatni aks ettiruvchi falsafadir. U kam resurs bilan ko'proq

natijaga erishish, soddalik orqali go'zallik yaratish va inson ruhiyatini asrash g'oyalariga xizmat qiladi. Shuningdek, minimalizm ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Resurslardan tejamkor foydalanish, energiya samaradorligi, tabiiy materiallarni qo'llash - bularning barchasi barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi. Ortiqcha qurilish xarajatlaridan voz kechish esa iqtisodiy jihatdan ham foydalidir. Shu bois minimalizm bugungi kunda ekologik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul me'moriy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy jamiyatda minimalizm uslubi nafaqat me'moriy yo'nalish, balki keng qamrovli ijtimoiy - madaniy hodisa sifatida ham muhim o'rin egallamoqda. Bugungi kunda shaharlar jadal kengayib, aholi soni ortib borayotgani sababli insonlar yashash va ishlash uchun ixcham, qulay hamda tartibli makonlarga ehtiyoj sezmoqda. Minimalizm aynan ana shu ehtiyojlarga javob beruvchi eng maqbul arxitektura uslublaridan biri hisoblanadi. Avvalo, minimalizm zamonaviy jamiyatda inson ruhiy salomatligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ortiqcha buyumlar, rang-barang va murakkab dizayn elementlari bilan to'la muhit inson ongini charchatadi, diqqatni bo'ladi va stressni kuchaytiradi. Minimalistik arxitektura esa soddalik va osoyishtalik muhitini yaratib, insonni ortiqcha vizual zo'riqishdan xalos etadi. Bunday makonlarda yashash va faoliyat yuritish samaradorligini oshiradi hamda ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi. Minimalizm iqtisodiy jihatdan ham dolzarbdir. Zamonaviy qurilish jarayonlarida ortiqcha bezak va keraksiz detallarni kamaytirish qurilish xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi. Materiallardan oqilona foydalanish, soddaki konstruksiyalarni qo'llash hamda ko'p funksiyali yechimlardan foydalanish minimalizmni tejamkor me'moriy uslubga aylantiradi. Bu esa aholi uchun arzon va qulay turar-joylar yaratish imkonini beradi.

Shuningdek, minimalizm zamonaviy jamiyatda ongli iste'mol madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Ortiqcha narsalarga berilmaslik, faqat zarur bo'lgan buyumlar bilan cheklanish g'oyasi insonlarni moddiy boylikka haddan tashqari qaram bo'lib qolishdan saqlaydi. Minimalistik makon insonni tartibli, maqsadga yo'naltirilgan va ma'suliyatli hayot tarziga undaydi. Bugungi raqamli davr sharoitida ham minimalizmning ahamiyati ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar inson ongiga katta axborot yukini yuklamoqda. Shunday sharoitda soddaki va tartibli arxitektura muhiti inson uchun "dam olish hududi" vazifasini bajaradi. Minimalizm inson hayotida muvozanatni saqlashga, keraksiz axborot va shovqindan uzoqlashishga yordam beradi. Zamonaviy shaharsozlikda ham minimalizm muhim rol o'ynamoqda. Aholi zich joylashgan

hududlarda makondan unumli foydalanish, kichik maydonda maksimal qulaylik yaratish aynan minimalizm tamoyillari orqali amalga oshiriladi. Ko'p qavatli turar-joylar, ofis binolari va jamoat inshootlarini loyihalashda ushbu uslubning afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu tariqa, minimalizm zamonaviy jamiyat uchun nafaqat estetik did namunasi, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishdir. U inson va makon o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlab, hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan minimalizm tamoyillarining qay darajada keng tatbiq etilishiga bog'liq bo'lib qoladi.

Minimalizm uslubi bugungi kunda me'morchilikda eng keng tarqalgan yo'nalishlardan biri bo'lishiga qaramay, u ham o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega. Ushbu xususiyatlarni chuqur tahlil qilish minimalizmning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini yanada aniqroq anglashga yordam beradi.

Birinchi navbatda, minimalizm arxitekturasini makondan oqilona foydalanish imkonini beradi. Minimalistik loyihalarda har bir kvadrat metr puxta rejalashtiriladi. Keraksiz devorlar, ortiqcha bezaklar va noqulay konstruksiyalar olib tashlangani sababli bino ichki qismi kengroq, yorug'roq va qulayroq ko'rinadi. Bu ayniqsa kichik maydonli uylar va ofislar uchun juda muhimdir. Muhim afzallik – parvarish va ekspluatatsiyaning osonligi. Minimalistik binolarda murakkab dekorativ elementlar kam bo'lgani uchun ularni tozalash, ta'mirlash va saqlash nisbatan yengil kechadi. Bunday makonlarda tartibni saqlash oson bo'lib, ortiqcha mebel va buyumlar talab etilmaydi. Ko'plab boshqa uslublar vaqt o'tishi bilan modadan chiqib ketishi mumkin. Minimalizm esa soddalikka asoslangani sababli doimo zamonaviy ko'rinishda qoladi. Uning dizayni yillar davomida eskirmaydi va ortiqcha o'zgartirishlarni talab qilmaydi. Shuningdek, minimalizm funksionallikni oshiradi. Har bir element aniq vazifani bajaradi. Binodagi barcha qismlar mantiqiy joylashtirilgani sababli inson uchun qulay muhit yaratiladi. Minimalistik makonlarda harakat erkinligi yuqori bo'ladi, bu esa kundalik hayotni yengillashtiradi. Yana bir muhim afzallik – zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligi. Minimalizm "aqlli uy" tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv, yashirin yoritish va transformatsiyalanuvchi mebellar bilan juda mos keladi. Shu sababli minimalistik binolar texnologik taraqqiyotga tez moslashadi. Bundan tashqari, minimalizm insonda tartiblilik va intizom tuyg'usini shakllantiradi. Bunday muhitda yashovchi insonlar ortiqcha buyum yig'ishdan tiyilib, faqat zarur narsalarga e'tibor qaratishni o'rganadilar. Bu esa shaxsiy hayotda ham soddalik va aniqlikni targ'ib qiladi.

Shu bilan birga, minimalizm arxitekturasini ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Avvalo, ko'pchilik uchun minimalistik muhit haddan tashqari sovuq va hissiz ko'rinishi mumkin. Bezaklarning kamligi ba'zan uy muhitini rasmiy yoki zerikarli qilib qo'yadi. Har bir inson bunday soddalikni ruhiy jihatdan qabul qila olmaydi. Individual didni ifodalash imkoniyatining cheklanganligi. Minimalizm ranglar, shakllar va bezaklar juda kam qo'llanadi. Shu sababli ayrim insonlar o'z shaxsiy uslubini namoyon eta olmaslikdan norozi bo'lishlari mumkin. Minimalistik binolarni loyihalashda xatolarga joy qolmasligi. Bu uslub juda aniq o'lchov va professional yondashuvni talab qiladi. Eng kichik noto'g'ri qaror ham umumiy ko'rinishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli minimalizm yuqori malakali me'mor va dizaynerlarni talab etadi. Yana bir muammo – boshlang'ich qurilish xarajatlarining yuqoriligi. Minimalistik inshootlar tashqi tomondan soddaga ko'rinsa-da, sifatli materiallar, katta oynalar, maxsus yoritish tizimlari va zamonaviy texnologiyalar ko'p mablag' talab qiladi. Bu esa ba'zan minimalizmni iqtisodiy jihatdan qimmat uslubga aylantiradi. Shuningdek, minimalizm saqlash joylarining kamligi sababli buyumlarni joylashtirish muammosi yuzaga kelishi mumkin. Minimalistik interyerda tartibni saqlash uchun doimiy ravishda ortiqcha narsalardan voz kechib borish talab etiladi. Bu esa har bir foydalanuvchi uchun ham qulay bo'lavermaydi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda minimalistik arxitektura mahalliy madaniy an'analar bilan mos kelmasligi mumkin. Milliy bezaklarga boy me'moriy an'analarga ega jamiyatlarda minimalizm ba'zan begona uslub sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, minimalizm arxitekturasini ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, u hamma uchun birdek mos keladigan universal yechim emas. Uning samaradorligi foydalanuvchining ehtiyoji, dunyoqarashi va hayot tarziga bog'liq. Minimalizmni to'g'ri qo'llash orqali qulay, zamonaviy va funksional makon yaratish mumkin. Ammo bu uslubni tanlashda uning salbiy jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Xulosa:

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, minimalizm arxitekturasini zamonaviy me'morchilikning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu uslub soddalik, funktsionallik va estetik uyg'unlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, bugungi jamiyat ehtiyojlariga to'liq javob beradi. Minimalizm arxitekturasini nafaqat bino va inshootlarning tashqi ko'rinishida, balki inson hayot tarzi, dunyoqarashi hamda madaniyatida ham muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining haddan tashqari ko'payishi, shaharlarning tig'izlashuvi va turmush sur'atining tezlashishi natijasida insonlar tartibli va osoyishta makonlarga ehtiyoj sezmoqda.

Minimalistik arxitektura ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qilib, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Soddalik va ortiqcha detallar yo'qligi odamlarni chalg'ituvchi omillardan xalos etib, ularning tinch va samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Shuningdek, minimalizmning iqtisodiy ahamiyati ham katta. Qurilish jarayonida keraksiz bezaklardan voz kechish, materiallardan tejankor foydalanish va makonni oqilona rejalashtirish bino qiymatini maqbullashtiradi. Bu esa aholining turli qatlamlari uchun qulay va hamyonbop turar-joy hamda jamoat binolarini yaratish imkonini beradi. Minimalizm arxitekturasi ekologik jihatdan ham muhim o'rin tutadi. Energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish, tabiiy materiallarni qo'llash, yorug'lik va havo almashinuvidan unumli foydalanish barqaror rivojlanish g'oyalari mos keladi. Bugungi kunda butun dunyoda ekologik muammolar keskinlashib borayotgan bir paytda minimalizm ekologik toza va mas'uliyatli me'morchilik namunasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, minimalizm insonlarda ongli iste'mol madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ortiqcha narsalarga berilmaslik, hayotni soddalashtirish, faqat zarur bo'lgan buyumlarga e'tibor qaratish kabi tamoyillar zamonaviy jamiyat uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Minimalistik makon insonni tartib-intizomga, mas'uliyatli va maqsadli hayot kechirishga undaydi. Minimalizm shuningdek, iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Kamroq material va resurslar talab qilinishi qurilish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi. Bu nafaqat shaxsiy darajada, balki butun jamiyat uchun ham foydali bo'lib, resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, minimalizm nafaqat arxitektura va dizayn sohasida, balki inson hayotining turli jabhalarida – ekologiya, ijtimoiy ong va iqtisodiyotda ham muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalish orqali jamiyat barqaror rivojlanish sari intiladi va hayotni yanada sifatliroq, mazmunliroq qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Becker J. The More of Less: Finding the Life You Want Under Everything You Own.- 2016.
- 2 Sasaki F. Goodbye, Things: The New Japanese Minimalism. - 2017.
- 3 Millburn J., Nicodemus R. Minimalism: Live a Meaningful Life. – 2015
- 4 Pallasmaa J. The Eyes of the Skin: Architecture and the Senses. – London: Wiley, 2005
- 5 Zumthor P. Thinking Architecture. – Basel Birkhauser, 2010